

YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 233 (1294), 2024-yil 16-noyabr, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



AHOLINI ENERGIYA MANBALARI BILAN BARQAROR TA'MINLASH ENERGETIKA TARMOG'INING DOIMIY E'TIBORIDA BO'LISHI ZARUR

Prezident Shavkat Mirziyoyev 15-noyabr kuni aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini energiya bilan uzluksiz ta'minlash, soha korxonalarida samaradorlikni oshirish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Bu borada 10-iyun kuni bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida vazifalar belgilangan edi. Mutasaddilar shu asnoda amalga oshirilgan ishlar, kuz-qish mavsumiga ko'rilgan tayyorlik to'g'risida axborot berdi.

Qayd etilganidek, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining o'sib borayotgan talabiga mos hajmda gaz yetkazib berilmoqda. Tarmoqlar modernizatsiya qilinayotgani, iqtisodiyotda energiya samaradorlik oshirilayotgani natijasida yo'qotishlar kamaymoqda. Masalan, so'ngi yillarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish uchun gaz sarfi 1,6 barobar kamaygan.

Oldinda yana ko'p vazifalar bor. Hozirgi mavsum va kelgusi yillarda aholini energiya manbalari bilan barqaror ta'minlash, buning uchun yetarli zaxira tayyorlash zarur. Yig'ilishda shu masalalar tarmoqlar kesimida muhokama qilindi.

Bu yil qish mavsumida iste'molchilarga 21 milliard kub metr gaz yetkazib berish hisob-kitob qilingan. Havo harorati keskin tushib ketsa, aholi ehtiyoji yanada oshadi. Mutasaddilar bu boradagi rejalarini oyma-oy va tumanlar kesimida bayon etdi.

Ijtimoiy muassasalar va korxonalarni energiya bilan uzluksiz ta'minlash uchun alohida zaxira inobatga olingan. Ushbu tabiiy gazni issiqlik elektr stansiyalari, kimyo va metallurgiya korxonalari, gaz quyish shoxobchalariga manzilli yetkazish bo'yicha tizim tashkil etilgan.

Tarmoqlarda gaz hisobi va nazorati bo'yicha boshlangan ishlarni qat'iy davom ettirib, yo'qotishlarni yanada kamaytirish mumkinligi ta'kidlandi. Andijon, Navoiy va Toshkent viloyatlarida gazni tejash bo'yicha aniqlangan imkoniyatlarni boshqa hududlarda ham amalga oshirish vazifasi qo'yildi.

Davlatimiz rahbari mutasaddilarga ishni tuman va mahallalar miqyosida tashkil etib, energiya ta'minoti bilan bog'liq masalalarni joyida hal qilish, talab va iste'molni muvofiqlashtirib, uzilishlarning oldini olish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Yig'ilishda gaz sohasidagi transformatsiya jarayonlariga ham to'xtalib o'tildi. Tarmoq korxonalarini xalqaro moliya bozoriga chiqib, modernizatsiya uchun mablag'larni mustaqil jalb etishi belgilandi.

Gaz tarmoqlarini yangilash va tartibga solishda eng katta imkoniyat — raqamlashtirish va xususiy sheriklik. Shu nuqtayi nazardan, tarmoqqa xususiy operatorlarni jalb qilish bo'yicha takliflar ko'rib chiqildi.

Prezident har bir tarmoq va uning korxonalarini kesimida tannarxni kamaytirish, xarajatni maqbullashtirish va transformatsiya jarayonini tezlashtirish bo'yicha topshiriqlar berdi. Yetakchi xorijiy kompaniyalarni jalb etib, geologiya-qidiruv ishlarini kengaytirish muhimligi aytili.

O'ZA

18-noyabr — O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilingan kun!

MAMLAKATIMIZDAGI ISLOHOTLAR KO'LAMI BAYROG'IMIZ QATIGA YASHIRINGAN ORZU-UMIDLAR, ULKAN MARRALARNI IFODALAYDI

Bayroq — orzu-umidlardir va qat'iy maqsadlar ifodasi!
Bayroq — yangi marralar sari chorlovchi g'oya!
Bayroq — xalq birdamligi, ertangi kuniga ishonch timsoli!
Bayroq — faxr-iftixor, g'urur va sharaf ramzi!
Bu shunchaki balandparvoz gaplar emas, tarix davomida ko'p bora tasdig'ini topgan. Bugun yangi O'zbekistonda yana bir bor amaliy ifoda kasb etayotgan ayni haqiqatlar! Keling, yuqoridagi fikrlar isbotini hayotiy misollar asosida ko'rib chiqsank.

Ma'lumki, bayroq jamiyatning orzu-umidlarini ifodalaydi. Shu bois, u turli davlatlarda turfa bo'yoqlarda o'z aksini topgan. Umumiy orzu, albatta, jamiyatni bir g'oya atrofida birlashtiradi. Ulkan maqsadlar sari yetaklaydi. Ammo bu o'z-o'zidan bo'lib qoladigan hodisa emas. Buning uchun jamiyatda BAYROQQA BO'LGAN MEHR, HURMAT — VATANPARVARLIK shakllanishi kerak. Shu ma'noda, "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"gi qonunga o'zgartirish kiritish bilan jamiyat birdamligi va ulkan marralar sari yana bir dadil qadam tashlangan edi. Xo'sh, yangi tahrirdagi qonunda nimalar o'zgaradi?

— Qonunga o'zgartirish kiritishdagi qizg'in jarayonning bevosita ishtirokchisi va tashabbuskorlaridan

biri sifatida shuni aytishim kerakki, ushbu qonun bayrog'imizga hurmatni saqlagan holda, undan o'z xonadonlarida, ish joylarida erkin foydalanish imkonini berdi. Bu boradagi mavjud ayrim cheklolvar barham topdi, — deydi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Shahnoza Xolmaxmatova. — Xususan, davlat ramziga zarur hurmat bilan muomala qilgan holda, undan va uning tasviri tushirilgan belgilardan jamoat joylari va binolarda, yashash yoki ish joylarida hamda ularga tutash bo'lgan hududlarda, transport vositalarining salonida foydalanish mumkinligi belgilandi.

Davomi 3-betda



Kun mavzusi

Noyabrning dastlabki uch kunida Toshkent havosi ifloslanishi rekord darajaga chiqqani ijtimoiy tarmoqlarda kun mavzusiga aylandi. Global havo sifatini kuzatib boruvchi IQAir veb-sayti ma'lumotlariga ko'ra, poytaxt havosidagi zaharli zarrachalar miqdori nihoyatda oshgani va bu Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tasdiqlagan me'yordan bir necha o'n barobar ko'p ekan bo'yicha xabarlar tarqaldi.

MAS'ULIYATNI SOQIT QILISH EMAS, MAQSADLARNI BIRLASHTIRISH ZARUR

HAVONING IFLOSLANISHIGA QARSHI JIDDIY CHORALAR KO'RISH VAQTI KELGAN



Xalqaro ko'rsatkichda 3-noyabr kuni Toshkent dunyodagi havosi eng iflos uchinchi shahar sifatida qayd etildi. Poytaxtda o'rnatilgan 32 ta stansiya ham havoda zaharli

zarrachalar me'yordan bir necha barobar oshganini ko'rsatgan.

Davomi 4-betda



OYDIN TAQDIRLAR YO'LI

Xalqaro sammitlarda O'zbekiston tashabbuslari muhim ahamiyat kasb etdi

Muhim voqealik — BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha hadli konvensiyasi Tomonlari konferensiyasining 29-sessiyasi (COP29) butun dunyo jamoatchiligi diqqat-e'tiborida bo'lib turibdi. BMT har yili o'tkazadigan, auditoriyasi va geografiyasi bo'yicha ikkinchi o'rinda turadigan iqlim o'zgarishi bo'yicha jahon yetakchilari sammiti turli irq va din vakillari, yuzlab millatlarni bir maqsad yo'lida jamladi.

Demakki, sayyoramizning ekologik muammolari ko'p va bu muammolar milliy chegaralarni tan olmaydi. Yalpi majlisda esa dunyoning 80 dan ortiq mamlakatidan davlat va hukumatlar, nufuzli xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari rahbarlari ishtirok etdi. 198 ta davlatdan 67 mingga

yaqin ishtirokchi ro'yxatdan o'tgan, 4 mingga yaqin kishi anjumanni onlayn kuzatib bordi. Bunda O'zbekiston yetakchisining ishtiroki, sammitda jahon e'tiboriga molik dolzarb taklif va tashabbuslar bilan chiqishi ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Davomi 3-betda

Sarhisob

DINIY BAG'RIKENGLIK — TINCHLIK VA FAROVONLIK ASOSI

Ilm-fan — inson kamolotiga poydevor. Ma'rifat va ma'naviyat esa barkamollik ustunlaridir. Zero, qadim Sharqda ta'lim va tarbiya hech vaqt ayro yoki biri ikkinchisidan ustun baholanganmagan. Bu esa dunyo tamadduniga tamal toshlarini qo'yan Imom Buxoriy, Al-Xorazmiy, Imom Nasafiy, Al-Farg'oniy kabi ne-ne davrg'ri dunyoga doston ulug' qomusiy allomalar bebaho merosida ham namoyon.

Ulug' ajdodlarning donishmandlik an'analari amal qilib, bugun O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yd. Buni mamlakatimizning tashqi va ichki siyosatidan tortib, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy hamda diniy-ma'rifiy sohalaridagi tub islohotlar misolida ham yaqqol ko'rish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi va xalqimiz birdamligida qabul qilingan "O'zbekiston — 2030 strategiyasi" asosidagi yangilanishlar, tom ma'noda, xalqimiz

hayotidagi farovonlik va mamlakat taraqqiyotida o'z bo'y-bastini ko'rsata boshladi.

So'nggi yetti yilda mamlakatimizda turli millat va konfessiyalar o'rtasida o'zaro hurmat, birdamlik va hamkorlik muhitini mustahkamlash, madaniyatlararo muloqotni qo'llab-quvvatlash hamda tinchlik va totuvlikni ta'minlashga qaratilgan izchil va puxta o'ylangan siyosat xalqaro hamjamiyat tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanmoqda.

Davomi 2-betda

YTTB vitse-prezidenti Matteo PATRONE:

"O'ZBEKISTON O'Z IQTISODIYOTINI ISLOH QILISH BO'YICHA KOMPLEKS DASTURNI AMALGA OSHIRMOQDA"

Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining (YTTB) O'zbekistonga kiritgan investitsiyalari hajmi tez orada yiliga 1 milliard yevroga yetishi mumkin. Shu va boshqa mavzular haqida YTTB vitse-prezidenti Matteo Patrone "Dunyo" axborot agentligi uchun eksklyuziv intervyu berdi. Unda O'zbekiston va YTTB o'rtasidagi hamkorlikning bugungi holati va istiqbollari haqida fikr yuritiladi.

— Janob Patrone, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki 2017-yilda mamlakatimizda o'z faoliyatini tiklaganidan buyon O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda faol ishtirok etib kelmoqda. Keling, subhatimizni bankning O'zbekistonda amalga oshirayotgan asosiy loyihalari haqidagi ma'lumotlar bilan boshlasank.

— Savol uchun katta rahmat. Darhaqiqat, 2017-yildan buyon ikki tomonlama munosabatlarimiz mustahkamlanib bormoqda. 2023-yilda mamlakatga 700 million yevrodan (760 million AQSH dollari) ortiq mablag' yo'naltirildi.

To'rtinchi yildirki, O'zbekiston YTTB mablag'larini jalb qilish bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqasida yetakchilik qilmoqda. Mamlakatdagi loyihalar portfeli O'zbekistonga kiritiladigan yillik investitsiya hajmi bosqichma-bosqich 1 milliard yevroga yetishini prognoz qilish imkonini beradi.

Biz qayta tiklanadigan energetikadan barqaror infratuzilmaga, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashdan uy-joy, energiya samaradorligigacha bo'lgan sohalaridagi loyihalarni moliyalashtiraymiz. Markaziy Osiyoda eng ko'p aholiga ega bo'lgan O'zbekistonda faoliyatimiz hukumat bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan mamlakat strategiyasida belgilab berilgan. Respublika uchun 2029-yilgacha bo'lgan ustuvor vazifalarimiz karbonsizlanishni qo'llab-quvvatlash, suv samaradorligini oshirish, toza energiya, xususiy sektorni rivojlantirish, bandlikka ko'maklashish, inklyuzivlik va raqamli o'tishni rag'batlantirish, iqtisodiy boshqaruv, ishlabarmonlik muhiti va infratuzilma aloqalarini yaxshilash, shuningdek, imzolangan loyihalarni, xususan, davlat sektorida amalga oshirishga e'tibor qaratishni o'z ichiga oladi.

Davomi 2-betda

Uyg'oq fikr

TARIXDAN QUVVATLANISH HODISASI

yoxud qanday yashashimiz kerak?

5

DINIY BAG'RIKENGLIK - TINCHLIK VA FAROVONLIK ASOSI

Boshlanishi 1-betda

E'tiborlisi, 2017-yili 19-sentabrda Nyu-York shahrida bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan tashabbusning amaliy ifodasi sifatida 2018-yili BMT Bosh Assambleyasining navbatdagi yalpi sessiyasida "Ma'rifati va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiya qabul qilindi. O'zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan hujjat loyihasi BMTga a'zo barcha davlatlar tomonidan bir ovozdan ma'qullandi.

O'zbekiston taklif etgan rezolyutsiyaning asosiy maqsadi — barcha uchun ta'lim olish imkoniyatini taqdim etish, savodsizlik va bilimsizlikni bartaraf etishdan iborat. Hujjatda bag'rikenglik va o'zaro hurmatni o'rnatish, diniy erkinlikni ta'minlash, dindorlar huquqlarini himoya qilish va ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka muhim ahamiyat qaratilgan.

"Ma'rifati va diniy bag'rikenglik" to'g'risidagi rezolyutsiya jahonda ekstremizm, terrorizm muammosi avj olib, turli din va e'tiqod vakillariga nisbatan toqatsiz, murosasiz munosabatlar kuzatilayotgan bir vaqtda global tahdidlarga qarshi kurashishning samarali vositasi sifatida ma'rifati, ta'lim-tarbiya masalasini ilgari surgani bilan ahamiyatlidir.

Ta'kidlash joizki, dunyoning turli mintaqada va davlatlarida insonning yashashi, ta'lim olishi, mehnat qilish hamda o'z iqtidorini namoyish etish, o'z diniy e'tiqodiga amal qilish kabi hayotiy va tabiiy haq-huquqlari turli darajada poymol etilayotgan bir davrda O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat hamda 16 ta konfessiya vakillari bag'rikenglik tamoyili asosida tinch-totuv yashab kelmoqda. Turli millat va din vakillarining bexavotir e'ja ibodatlarini erkin-erkin ado etishlari esa jamiyat barqarorligida ustuvor jihati hisoblanadi.

Tahlillarga e'tibor bersak, hozirgi kunda O'zbekistonda jami 2369 ta diniy tashkilot bo'lib, shundan 2171 tasi islomiy va 198 tasi noislomiy diniy tashkilot hisoblanadi.

So'nggi yetti yilda respublika bo'yicha jami 130 ta diniy tashkilot, shu jumladan, 3 ta oliy va 1 ta o'rta maxsus islom bilim yurti, 102 ta masjid hamda 24 ta turli konfessiyaga taalluqli noislomiy diniy tashkilotlar davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

Ma'lumki, yurtimiz azaldan ma'rifati markazi sifatida tanilgan. Shu bois, ilmiy-ma'rifiy markazlar ham tashkil etilmoqda. Xususan, Toshkent shahrida ko'p asrlik ma'rifati xazinasi o'zida mujassam etadigan, fundamental tadqiqotlar olib boriladigan Islom sivilizatsiyasi markazi bunyod etilmoqda. Shuningdek, o'tgan qisqa vaqt oraliqida Samarqandda Imom Buxoriy, Surxondaryoda Imom Termiziy va Toshkent shahrida Imom Moturidiy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Hozirda ushbu ilmiy markazlarda aniq fanlar qatorida

ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand, Namangan va Surxondaryo viloyatlarida uning hududiy filiallari tashkil etilgan ham diniy ta'lim sohasida o'ziga xos ahamiyat kasb etmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, 2017-yilga qadar 3 ta oliy (1 ta islomiy 2 ta noislomiy) hamda 9 ta o'rta maxsus diniy ta'lim muassasasi faoliyat yuritgan bo'lsa, bugungi kundagi holatga ko'ra, respublika bo'yicha jami 16 ta diniy ta'lim muassasasi mavjud bo'lib, ulardan 6 tasi oliy ta'lim berishga mo'ljallangan, jumladan, Toshkent islom instituti, Imom

Yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk mutafakkir allomalarning hayoti va ilmiy merosini o'rganish yuzasidan jami 600 dan ortiq kitob, monografiya, xalqchil risola, roman nashr qilindi.

Zamonaviy islomshunoslik masalalariga oid jami 250 ta, jumladan, 173 ta kitob, 52 ta qo'llanma, 25 ta monografiya chop etildi.

Movarovnahrlik allomalimiz ma'naviy merosiga oid chet ellarda chop etilgan mingga yaqin nomdagi kitoblar yurtimizga keltirildi. Ulug' allomalimizning yurtimiz va xorijda saqlanayotgan merosiga taalluqli 10 mingdan



Hadis, Kalom, Aqida, Tasavvuf, Fiqh kabi ilmlar bo'yicha chuqur tadqiqot va izlanishlar olib borilmoqda. Buxorodagi Mir Arab oliy madrasasi, Toshkent islom instituti, Imom Termiziy nomidagi islom instituti va Samarqandda Hadis ilmi maktabi singari oliy o'quv yurtlarida ham yetuk malakali mutaxassislar tayyorlanmoqda.

2018-yilda esa islohotlarning uzviy davomi sifatida O'zbekiston Islom akademiyasi va Toshkent Islom universiteti negizida O'zbekiston xalqaro Islom akademiyasi tashkil etildi. Akademiya tarkibidagi malaka oshirish Markazi faoliyatiga qo'shimcha

Termiziy nomidagi islom instituti, Buxoro "Mir Arab" oliy madrasasi, Samarqand "Hadis ilmi maktabi", Toshkent pravoslav va Toshkent xristian seminarialaridir.

Bugungi kunda mazkur ta'lim muassasalarida islom ma'rifatini tarqatish, o'tmish ajdodlarning boy ma'naviy merosini yanada chuqur o'rganish borasida keng ko'lami ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati yo'lga qo'yildi. Xususan, 2017-2024-yillar davomida diniy-ma'rifiy merosimizni o'rganishga oid 220 ta falsafa fan nomzodligi va fan doktorligi ilmiy dissertatsiyalari himoyasi amalga oshirildi.

ortiq qo'lyozma asarlarining elektron bazasi shakllantirildi.

Yana bir e'tiborli jihat: So'nggi yillarda noislomiy konfessiyalarning tadbirlari yuqori saviyada tashkil etib kelinmoqda. Xususan, Rus pravoslav cherkovi Toshkent va O'zbekiston yeparxiyasining 145 yilligi (2017-yil noyabr) va 150 yilligi (2021-yil noyabr), Arman apostolik cherkovining 120 yilligi (2023-yil sentyabr), O'zbekiston Bibliya jamiyatining 25 yilligi (2018-yil noyabr) va 30-yilligi (2023-yil sentyabr), Bahoiylar diniy jamoasi asoschisi Bahoulla tavalludining 200 yilligi (2017-yil noyabr),



Bob tavalludining 200 yilligi (2019-yil noyabr) va Abdul Baho vafotining 100 yilligi (2022-yil yanvar) kabi tadbirlarning yuqori saviyada tashkil etilgani — yurtimizdagi tinchlik va bag'rikenglikning yaqqol namunasi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Shuningdek, O'zbekiston Bibliya jamiyati respublikada xristianlik diniy yo'nalishlari uchun diniy mazmundagi materiallar bilan ta'minlovchi yagona jamoatchilik markazi hisoblanib, muttasil ravishda jahonning turli tillarida, shu jumladan, o'zbek tilidagi diniy materiallarni nashr etish va respublika hududiga olib kirishni ta'minlab keladi.

Jumladan, so'nggi yillarda ushbu jamiyat tomonidan 20 turdan ortiq diniy mazmundagi adabiyotlar taxminan 90 ming nusxada chop etilgan va import qilingan. Bularning orasida "Muqaddas kitob" 20 mingga yaqin, "Muqaddas kitob. Yangi ahd" va "Yangi ahd" kitoblari 5 mingga yaqin nashrda chop etilgan.

Shu bilan birga, turli din vakillarining xorijdagi muqaddas maskanlarni ziyorat qilishiga ham katta e'tibor qaratildi. Ushbu sohada amalga oshirilayotgan barcha sa'y-harakatlar "Jaholatga qarshi ma'rifati" degan ezgu g'oyaga asoslangan.

Ta'kidlash joizki, bugungi tahlikali, ziddiyatli zamonda O'zbekistonda mavjud dinlararo va millatlararo totuvlik hamda diniy-ma'rifiy sohada qimmatli ishlohtlar davlatlar uchun o'rnatilgan e'tirof etilmog'ida.

So'nggi yillarda Saudiya Arabistoni, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Misr, BAA, Turkiya, Malayziya, Indoneziya singari davlatlarning diniy sohaga mas'ul tirdosh vazirlik va idoralari, ilmiy-tadqiqot markazlari hamda ta'lim muassasalari bilan 125 dan ziyod hamkorlik

memorandumlari imzolangan fikrimizning yaqqol isbotidir.

O'z navbatida, 2017-2024-yilda respublikamizdagi ko'zga ko'ringan ulamolar, dinshunos va islomshunos olimlar hamda tadqiqotchilarning Turkiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Misr, Malayziya, Indoneziya, Singapur, Afg'oniston, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Ozarbayjon bilan hamkorlikda tashkil etilgan 400 dan ortiq tadbirlarda ishtirok etdi.

Shu bilan birga, nufuzli xalqaro islom tashkilotlari rahbarlari, taniqli diniy ulamolarning O'zbekistonga tashrif tashkil etildi. Xususan, IYSESCO, IRSIKA, KOMSTK, Islom taraqqiyot banki, Oksford islom tadqiqotlari markazi, Malayziya Islomni anglash instituti, Umumjahon so'fiylar markazi, Saudiya Arabistoni Axborot va arab-rus tadqiqotlari markazi, Hindiston islom madaniyati markazi va boshqa nufuzli xalqaro hamda xorijiy tashkilotlar rahbarlari mamlakatimizda bo'ldi.

Xulosa o'rinda aytish joizki, O'zbekiston ming yillar davomida Buyuk ipak yo'lining muhim qismi bo'lib kelgan. Bu yerda savdo-sotiq, ilm-fan, madaniyat markazlari hamisha taraqqiy etgan. Ularning rivojlanishida xalqimizga xos bag'rikenglik, mehmondo'stlik, o'zga madaniyat vakillariga hurmat tuyg'ulari asosiy omillardan bo'lgani tabiiy. Shuning uchun bugungi kunda ham o'lkamizda turli xalqlar urf-odat va an'analari o'zaro uyg'unlikda rivojlanib bormog'ida.

Shulardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan diniy bag'rikenglik borasida olib borilayotgan o'tkir siyosat, tom ma'noda, dunyo mamlakatlarida tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikning asosi bo'lib xizmat qilishi, shubhasiz.

Sodiq TOSHBOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Din ishlari bo'yicha qo'mitasi
raisi.
O'ZA

YTTB vitse-prezidenti Matteo PATRONE:

"O'ZBEKISTON O'Z IQTISODIYOTINI ISLOH QILISH BO'YICHA KOMPLEKS DASTURNI AMALGA OSHIRMOQDA"

Boshlanishi 1-betda

Bank tomonidan moliyalashtirilgan va Saudiya Arabistonining "ACWA Power" kompaniyasi tomonidan joriy yilda ishlab chiqilgan bir nechta loyihalar to'g'risida qisqacha to'xtalsam. Bu Toshkent viloyatida elektr energiyasini saqlash tizimini yaratish bo'yicha Markaziy Osiyodagi ilk yirik loyiha va qayta tiklanadigan vodorod ishlab chiqarish bo'yicha birinchi tajriba qurilmasidir. Mintaqadagi eng yirik hisoblanayotgan ushbu loyiha o'zgaruvchan qayta tiklanadigan energiya manbalarini elektr tarmog'iga xavfsiz ulaydi, ikkinchi esa O'zbekistonda o'g'it va energiya ishlab chiqarish dekarbonizatsiyaga xizmat qiladi.

Bilamizki, bank O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga ham faol ko'maklashmoqda. Mamlakatimizda yaratilgan ishlabarmonlik muhiti va bu borada YTTB bilan hamkorlik istiqbollari qanday baholaysiz?

O'zbekistonda kichik va o'rta korxonalar YAImning deyarli 50 foizini tashkil qiladi va ular ishchi kuchining qariyb 80 foizini ish bilan ta'minlaydi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash milliy ustuvorliklar qatoriga qo'yilgani bejiz emas.

YTTB, shuningdek, bankning O'zbekiston bo'yicha yangi strategiyasida belgilanganidek, ushbu sektorni o'zining asosiy operatsion ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirdi. Biz hamkor banklarimiz orqali kichik va o'rta biznes korxonalariga kreditlarni taqsimlash imkoniyatlarini taqdim etaymiz. Xususan, ayollar va yoshlar rahbarligidagi korxonalarni qo'llab-quvvatlovchi, ularga ekologik toza va iqlimga chidamli texnologiyalarni joriy etish imkonini beruvchi maqsadli dasturlar amalga oshiriladi. Banklar ham, kichik va o'rta biznes korxonalarini ham YTTBning Biznes maslahat xizmatlari (ASB) dasturidan foydalanishda davom etadi.

O'tgan yili YTTB Markaziy Osiyoda 200 million yevroga (218 million AQSH dollari) teng bo'lgan yetti yillik "Biznesda yoshlar" dasturini ishga tushirdi. Dastur 18 yoshdan 34 yoshgacha bo'lgan yosh tadbirkorlarni moliyalashtirish va kasbiy ta'lim olish imkoniyatini yaxshilashga qaratilgan. Markaziy Osiyo mintaqasida ular mehnatga layoqatli aholining uchdan bir qismini tashkil qiladi.

YTTB krediti 30 million yevroga bo'lgan grantlar va imtiyozli qo'shma moliyalashtirish paketi bilan ta'dirliladi, bu esa yoshlar tadbirkorligini inklyuziv moliyalashtirishga yordam beradi. Dasturga qo'shilgan birinchi muassasalar O'zbekistondagi yirik xususiy moliya tashkilotlari — "Hamkorbank" va "Ipk yo'li banki" bo'ldi.

YTTB, shuningdek, o'zining uzoq muddatli mijozlari "ACWA Power" bilan hamkorlikda O'zbekiston yoshlari uchun qo'yosh va shamol texnologiyalari bo'yicha "yashil ko'nikmalar" dasturini ishlab chiqdi.

Ta'kidlaganingizdek, YTTB xotiniqizlar tadbirkorligini kengaytirishni qo'llab-quvvatlamog'ida. Bu jabhada istiqboldagi rejalar qanday?

Bankning imkoniyatlar tengligi strategiyasi jinsi, tug'ilgan yoki yashash joyi, yoshi, nogironligi, mahorat turlari, harakatchanlik va boshqalar kabi omillar imkoniyatlarining tengsizligiga olib kelishi mumkin, ammo inson hayoti davomida o'zgarishi mumkinligini tan oladi.

Strategiya YTTB investitsiyalari uchun yangi yo'nalishlarni ochadi va quyidagi yo'nalishlarda maqsadli yordam ko'rsatadi. Bularga ko'nikmalar, bandlik va barqaror turmush sharoitlarini kengaytirish, inklyuziv va genderga bog'liq moliyaviy tizimlar hamda biznes muhitini yaratish, shuningdek, xizmatlar va jamoat tovarlari kiradi.

Umuman olganda, tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlash O'zbekiston uchun



muhim ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatning 2030-yilgacha gender tengligiga erishish strategiyasiga muvofiq ayollarga tegishli yoki boshqariladigan kichik va o'rta korxonalar ulushini hozirgi 25 foizdan 40 foizga oshirishni maqsad qilgan.

YTTBning "Markaziy Osiyoda ishlabarmon ayollar" dasturi O'zbekistonda 2020-yilda ish boshlagan. Tadbirkor ayollarni moliyalashtirish tashabbusi grant mablag'lari hisobidan qo'llab-quvvatlanadi, u moliya, nou-xau va texnik maslahatlardan foydalanishni rag'batlantirish orqali ayollar tadbirkorligi va ishlabarmonlik faolligini rivojlantirishga qaratilgan. Hamkor banklarimiz kredit liniyalari bizga hatto mamlakatning chekka hududlarida ham ayollar boshchiligidagi yoki ularga tegishli bizneslarga yordam berishda yaqindan ko'mak beradi.

O'zbekistondagi infratuzilma loyihalari va umuman, infratuzilmani yaxshilash borasidagi ishlar rivojini qanday baholaysiz?

Mintaqaviy transport aloqalari, umuman, Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston uchun juda muhim. Transkaspий yo'lagini takomillashtirish va kengaytirishdan Markaziy Osiyo va undan tashqaridagi savdo katta foyda keltiradi. Biz O'zbekiston mintaqalararo transport aloqalari uchun ushbu tashabbusning muhim qismi ekanligiga qat'iy ishonamiz. Mamlakat avtomobil va temir yo'llarini yangilash, chegaradan o'tish punktlarini modernizatsiya qilish, mintaqalararo savdo va transport yo'lidagi ortiqcha to'siqlarni bartaraf etishi kerak.

2024-yil boshida bank kelgusi 2-3 yil ichida Transkaspий yo'lagini bilan bog'liq infratuzilma va transport yechimlariga taxminan 1,5 milliard yevro investitsiyasi kiritishga tayyorligini bildirdi. Bu boradagi ishlarimiz haqidagi yaxshi misolni aytib o'tmoqchiman. 2024-yil may oyida imzolangan YTTBning 238 million AQSH dollari miqdoridagi suveren krediti Xorazm viloyatidagi 81 kilometrlik yo'lni yangilash va Amudaryo orqali ko'priq qurishga yordam beradi. Ushbu strategik muhim yo'l viloyat ma'muriy markazi Urganch shahrini Qozog'iston bilan bog'lovchi va Transkaspий yo'lagini tashkil etuvchi transport tarmog'ining bir qismiga aylandi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha loyihalar YTTB kun tartibida muhim o'rinni tutadi. Bankning O'zbekiston bilan yo'nalishdagi hamkorlik strategiyasini qanday?

Biz "yashil" bankimiz va shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda qo'llab-quvvatlayotgan har bir loyiha bizning qat'iy ekologik va ijtimoiy mezonlarimizga javob berishi kerak.

YTTB va O'zbekiston hukumati uzoq muddatli dekarbonizatsiya strategiyasini ishlab chiqdi, bu esa mamlakatning 2050-yilgacha energetika sektorining uglerod neytralligiga erishish rejasini qo'llab-quvvatlaydi. Bank, shuningdek, mamlakatga metan emissiyasi milliy dasturini ishlab chiqishda yordam bermog'ida.

O'zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy qilishni qo'llab-quvvatlashda davom etamiz. Birgina 2023-yilning o'zida bank tomonidan 1 GvT qayta tiklanuvchi energiya quvvatini yaratishni moliyalashtirish natijasida mamlakatning qayta tiklanadigan energiya manbalarining umumiy quvvati 2,7 GvTga yetkazildi.

YTTB, shuningdek, shamol energiyasi, jumladan, Qoraqalpog'istonning 200 MVt quvvatga ega birinchi elektr stansiyasi uchun raqobatchilik tendarlarini rag'batlantirmog'ida. Biz buni davom ettiramiz va bu iste'molchilar elektrni eng maqbul narxlarda olishga yordam beradi hamda eng yaxshi investorlarni jalb qiladi. Kelgusi yillarda biz O'zbekistonga 2030-yilgacha 25 GvTgacha quyosh va shamol energiyasini o'rnatish bo'yicha o'zining ulkan maqsadiga erishishga yordam beradigan qayta tiklanadigan energiya manbalarining yangi loyihalarini qo'llab-quvvatlaymiz.

Bank Markaziy Osiyoning eng ko'p aholi yashaydigan qismi bo'lgan Farg'ona vodiysida irrigatsiya tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha yirik (200 million dollar) loyihani ham qo'llab-quvvatlaydi. Eski suv nasoslarini zamonaviy jihozlashga almashirish suv yo'qotishlarini kamaytiradi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda turli sohalarda, jumladan, iqtisodiy jihatda keng ko'lami islohtlar amalga oshirilmog'ida. Bu o'zgarishlar xorijiy mutaxassislar tomonidan ijobiy baholanmog'ida. Shu nuqtayi nazardan, Sizing fikrlaringizni bilish biz uchun muhim...

Mamlakatimizda iqtisodiyotni isloh qilish bo'yicha kompleks dasturlar amalga oshirilmog'ida. Respublika yuqori investitsiyaviy salohiyatga ega. O'zbekiston iqtisodiy rivojlanish borasida to'g'ri yo'ldan odimlamog'ida, xususiy sektorni rivojlantirish borasida esa yuqori yutuqlarga erishmog'ida.

Shuningdek, energetika sohasida infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha ko'plab tashabbuslar ilgari surilyapti, bu esa mintaqa davlatlari bilan iqtisodiy integratsiyalashuvga kuchli turki beradi.

Shu o'rinda yana bir savol, O'zbekistonning ko'plab hududlarida bo'lgansiz. Hududlardagi biznes muhiti haqida nima deya olasiz?

Ha, ko'plab hududlarda bo'lganman, bir necha marotaba tashrif buyurganman. Aytishim kerakki, har gal kelganimda shaharlar naqadar tez rivojlanayotganini, biznes yuritish uchun sharoitlar yaxshilanayotganini ko'raman. Umuman olganda, iqtisodiyotda xususiy sektorning o'rni ortib borayotganini ko'rib turibmiz va bu istiqbolli tendensiya deb hisoblaymiz.

O'zbekiston o'zaro hamkorlikda ham iqtisodiy aloqalarga alohida urg'u berib kelmog'ida. Yuqorida islohtlarning iqtisodiy integratsiyalashuviga turki bo'lisini ta'kidladingsiz. O'zbekistonning mintaqadagi iqtisodiy integratsiyalashuvdagi rolini qanday baholaysiz?

Darhaqiqat, geosiyosiy muhiti hisobga olganda, mintaqa deirasida mamlakatning iqtisodiy integratsiyasida faolligi juda muhim. O'zbekiston Yevropa taraqqiyot va tiklanish banki uchun ham muhim davlat hisoblanadi. O'zbekistonga yillik investitsiyalarimizni hisobga olsak, YTTBning mintaqa iqtisodiyotiga jami investitsiyasi 2 milliard AQSH dollaridan oshishini kutaymiz.

YTTBning O'zbekistondagi xayriya tashabbuslari haqida ham batafsilroq ma'lumot bersangiz.

YTTB O'zbekistonning "Ezgu amal" notijorat jamg'armasi bilan hamkorlikda saraton kasalligiga chalingan bolalarga dori-darmon va zarur tibbiy yordam xarid qilish uchun xayriya yig'ishga qaratilgan jamoat tashabbusini boshladi. Xayr-ehsonlar olti oy davomida yig'iladi va "Ezgu amal" butun O'zbekiston bo'ylab ko'proq oilalarni qo'llab-quvvatlash va og'ir xastaliklardan aziyat chekayotgan bolalar hayotini saqlab qolish uchun o'z faoliyatini kengaytiradi. YTTB ushbu xayriy ish uchun 50 ming yevroga mablag' ajratish jarayonini boshlagan.

Janob Patrone, bizga vaqt ajratganingiz va mazmunli suhbat uchun tashakkur!

Rahmat.



“ Poytaxtda daraxtlar kamayib ketgani sabab sifatida ko'rsatilib, har yili millionlab tup o'simlik ekilyapti hamki vaziyat yaxshilanmayapti. To'g'ri, daraxtlarni keng ko'lamda ekish ishlari boshlanganiga to'rt yil bo'ldi. Nihollar bo'y cho'zib, katta miqdorda kislorod berishiga vaqt kerak. Qolaversa, ekilayotgan ko'chatlarning hammasi ham ko'karib ketmayotgani, qurib qolayotgani ko'pligi ham bor gap.

Boshlanishi 1-betda

So'nggi vaqtlarda Toshkent shahri havoning ifloslanishi bo'yicha ana shunday xalqaro "reyting"larda tez-tez paydo bo'lib, hatto eng yuqori o'rinlarni egallayotir. Bu borada aholisi eng ko'p va gavjum davlatlarga yetib oldik. Ammo bu maqtansa arziydigan jihat emas, aksincha, vaziyat tobora jiddiy tus olayotgani aholini haqli ravishda tashvishga solmoqda.

Qolaversa, poytaxt havosi o'ta yomonlashgan noyabrning dastlabki kunlari mazkur holat va uning manbasi haqida tegishli vazirlik va

Biz nafas olayotgan havoning tobora ifloslanib borayotgani insoniyat uchun jiddiy ekologik falokatga aylandi. Ma'lumotlarga ko'ra, hozir dunyo bo'yicha har 10 kishidan to'qqiz nafari ifloslangan havodan nafas olmoqda. Bu esa qator kasalliklarga chalinish xavfini oshiryapti.



Iroda TOSHMATOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

idoralar rasmiy ma'lumot bermagani, bir muddat jim turgani jamoatchilikning e'tirozlariga sabab bo'ldi. Shahar havosida zaharli moddalar ko'rsatkichi oshib ketgani Yunusobod tumanidagi yuqori ifloslanish bilan bog'liq ekani haqida gap-so'zlar tarqaldi.

Holat yuzasidan ma'lumot olish maqsadida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim

o'zgarishi vazirligi mutasaddilariga murojaat qildi.

Vazirlik tarkibiy tuzilmasidagi Gidrometeorologiya xizmati agentligi rasmiy saytida atmosfera havosining ifloslanishi, nafaqat chang, balki ko'plab turdagi zaharli manbalar ko'rsatkichi bo'yicha muntazam ochiq ma'lumot berib boriladi, — deydi vazirlik inspeksiya boshlig'i o'rinbosari Adham Qurbonov. — Yaqinda kuzatilgan holatga kelsak, poytaxtimizning Yunusobod tumanida jamoatchilik o'rnatgan qurilmada havo ifloslanishining eng yuqori darajasi qayd etilgan va bu xalqaro hisobotda butun Toshkent shahri havosiga nisbat berilyapti. Lekin vazirlik o'rnatgan 5 kilometr radiusdagi holatni aniqlaydigan professional qurilmalarda ko'rsatkichi unchalik yuqori emasligi kuzatildi. Mahalliy ma'lumotlarda Yunusobod tumani 7-mavzesida havoning yuqori ifloslanishi kuzatilgani aytilgan. Davlat inspektorlari holat bo'yicha joylarga chiqib o'rganiganda hududda kichkina qandolchilik sexi va uning yonida qurilish obyekti borligi aniqlandi. Hozir u yerdan olingan namunalar o'rganilyapti. Chindan ham ifloslanish manbasi shu obyektlar bo'lsa ham bu bir martalik holat va Toshkent havosining umumiy ifloslanishi ortishiga sabab bo'lmaydi. Faqat ayrim sabablarga ko'ra havoga chang ko'tarilib, ifloslanish oshishi mumkin. Lekin Toshkent shahrida doimiy ifloslanishni keltirib chiqaradigan yirik sanoat obyekti qolmagan. Shunga qaramay, aniqlangan obyektdagi ifloslanish darajasi tizimli bo'lsa, tadbirkorlik subyektiga majburiy choralar ko'riladi.

MAS'ULIYATNI SOQIT QILISH EMAS, MAQSADLARNI BIRLASHTIRISH ZARUR


HAVONING IFLOSLANISHIGA QARSHI JIDDIY CHORALAR KO'RISH VAQTI KELGAN

Iqtisodiy zarari ham katta

Biz nafas olayotgan havoning tobora ifloslanib borayotgani insoniyat uchun jiddiy ekologik falokatga aylandi. Ma'lumotlarga ko'ra, hozir dunyo bo'yicha har 10 kishidan to'qqiz nafari ifloslangan havodan nafas olmoqda. Bu esa qator kasalliklarga chalinish xavfini oshiryapti.

ifloslanishiga daraxtlarning yoppasiga kesib tashlangani sabab desa, boshqalar transport vositalari, aholi soni ortib borayotganini ko'rsatadi.

— Atmosfera ifloslanishiga asrlar davomida tabiiy va antropogen omillar ta'sir ko'rsatib kelgan, — deydi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi bo'lim bosh mutaxassisi Bahrom Esonov. — Toshkent shahri ifloslanishi ham bevosita shular bilan bog'liq. O'zbekiston hududi katta okeanlardan uzoqda, ko'proq cho'l va chala cho'l mintaqada joylashgani bois, tez-tez chang ko'tarilib turadi. Antropogen omillarga kelsak, poytaxtimiz havosi tarkibida yuzaga keladigan zaharli moddalarning asosiy manbalari issiqlik tarmog'i (28 foiz), transport (16 foiz) hamda sanoat (13 foiz)dir. Yozda shamol changi kabi transchegaraviy manbalar ustunlik qilsa, qishda ijtimoiy soha obyektlari va turar joylarni isitish PM2.5 zarrachalar bilan ifloslanishning asosiy sababiga aylanadi. Havoning transchegaraviy ifloslanishi faqat yoz oylarida emas, balki yil davomida



O'zbekistonda havo sifati bilan bog'liq noxush holatlarning aksariyati diametri 2,5 makron (PM2.5) bo'lgan zarrachalar tufayli yuzaga keladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotiga ko'ra, shu ko'rinmas zarrachalar aholi salomatligi uchun eng katta xavf tug'diradigan ifloslantiruvchi manbadir. Ularning



ko'rsatkichi yurtimiz atmosferasida ham oshib boryapti va xalqaro IQAir portali Toshkentni dunyoning havosi eng ifloslangan shaharlari qatoriga kiritgan. Jahon bankining O'zbekiston Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi bilan birgalikda taqdim etgan hisobotida ham vaziyat jiddiy ekani aks etadi. Unda keltirilishicha, Toshkent havosi ifloslanishi aholi salomatligi va iqtisodiyotga katta zarar yetkazmoqda. Holat natijasida poytaxt aholisi sog'lig'iga yetkazilgan zarar O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining 0,7 foizini tashkil qilishi mumkin.

Toshkent havosi ifloslanib borayotgani va buning salomatligimiz uchun xavfli ekanini yaxshi tushunamiz. Atrofimizda allergik kasalliklar ko'paygani, o'zimiz ham ba'zan nafas olishga qiynalishimiz sababini shunda ko'ramiz. Ammo odamlar uchun muhimi ushbu ekologik muammoning sababi va yechimidir. Bu borada turli taxminlar ham yo'q emas. Ba'zilar Toshkent shahri havosining

bo'ladigan holat. Tahlillarimizga ko'ra, havo ifloslanishining yuqori ko'rsatkichi ko'proq rivojlanayotgan davlatlarda kuzatiladi. Xususan, xalqaro IQAir platformasining ifloslangan shaharlar 50 taligi ro'yxatida Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari turibdi. Hindistonning 42 ta shahri, Pokiston, Bangladesh, Xitoy davlatlari shular jumlasidan. Platformaning yillik ma'lumotlarida Toshkent shahri 676-o'rinda ko'rsatilgan. Vaqti-vaqti bilan ro'yxatning yuqori o'rinlariga chiqayotganimiz ham rost. Jumladan, noyabr avvalidagi holatga ko'ra, Toshkent shahri dunyodagi eng ifloslangan shaharlar uchta uchta joy oldi. Bu kuz-qish mavsumining boshlanishi, isitish mavsumiga tayyorgarlik jarayoni, shahar atrofidagi issiqxonalar, sanoat korxonalarini, transport vositalarining ta'siri oshgani bilan bog'liq. Birgina misol: poytaxtimizda 800 mingdan ortiq transport vositasi ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, shaharga har kuni qo'shimcha 300 mingtacha avtomobil kirib keladi.

Faollar nima deydi?

Havo tarkibida zaharli zarrachalarning tasdiqlangan me'yordan bir necha barobar oshgani chindan jiddiy vaziyat. Mutasaddilar ta'kidlayotganidek, bu doimiy holat bo'lmasa-da, Toshkent shahri havo ko'rsatkichi bo'yicha tez-tez "qizil", ya'ni yomon darajani qayd etayotgani sir emas. Bunga poytaxtda daraxtlar kamayib ketgani sabab sifatida ko'rsatilib, har yili millionlab tup o'simlik ekilyapti hamki vaziyat yaxshilanmayapti. To'g'ri, daraxtlarni keng ko'lamda ekish ishlari boshlanganiga to'rt yil bo'ldi. Nihollar bo'y cho'zib, katta miqdorda kislorod berishiga vaqt kerak. Qolaversa, ekilayotgan ko'chatlarning hammasi ham ko'karib ketmayotgani, qurib qolayotgani ko'pligi ham bor gap.

Bir guruh faollar shahar havosining ifloslanishiga qarshi jiddiy choralar ko'rish vaqti kelganini ta'kidlayotgan. Ba'zilar bu haqda keskin fikr-mulohazalarini ijtimoiy tarmoqlar orqali bo'lishyapti. Xususan, yosh iqtisodchi Behzod Hoshimov ijtimoiy tarmog'dagi sahifasida "O'zbekiston va Toshkentdagi abgor havo muammosi bu — o'nlab yillar davomida kechiktirib kelinayotgan energetika islohoti masalasi", deb yozgan. Yana bir iqtisodiy tahlilchi Botir Qobilov esa "Asl o'choqlarni, sabablarni aniqlash, qo'l bilan ishora qilish va ularni bartaraf etish kerak. Ungacha



Nazorat tadbirlari yagona chora emas

Havoning ifloslanishiga qarshi kurash haqida gap borganida dunyo mamlakatlari tajribasi qiziq bo'ladi. Bu borada eng yomon ko'rsatkichga ega davlatlar ham yillar davomida qat'iy chora-tadbirlar asosida natijani yaxshilashga erishgan. Masalan, Kolumbiyaning Bogota shahri ifloslangan atmosferani yaxshilash bo'yicha Lotin Amerikasida yetakchilik qilmoqda. Xo'sh, mamlakat bu natijaga qanday erishdi? Avvalo, asosiy jamoat transporti bo'lgan eski avtobuslardan voz kechib, o'miga yangi elektrobuslar keltirilgan. Qolaversa, velosipedlar ham muhimligi ta'kidlanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, shaharda har kuni 1 milliondan ortiq velosipeddan foydalaniladi va bu orqali har yili atmosferaga 16 ming metrik tonna karbonat anhidrid yoki shunga o'xshash zararli gaz chiqishining oldi olinadi.

Janubiy Koreya poytaxti Seul ham avval sifati bo'yicha inqirozga duch kelganlardani edi. Biroq so'nggi yillarda qat'iy talablarni joriy etish orqali Seulda havo sifati yaxshilanishi kuzatilib, hatto shahar bu borada allaqachon o'nak ko'rsatmoqda. Gap shundaki, mamlakat hukumati qayta

tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish va ko'mirga ishlaydigan stansiyalarni bosqichma-bosqich to'xtatish kabi tashabbuslarni ilgari surdi. Seul shahri esa 2025-yilgacha barcha davlat sektori va ommaviy tranzit parklarida dizel yonilg'isi bilan ishlaydigan avtomobillar taqiblanishini e'lon qilgan.

Mamlakatimizda ham bu borada qadamlar tashlanayotgani rost. Ammo odamlarni o'yantirayotgan masala — Toshkent shahri havosining ifloslanishiga qarshi mutasaddilar qanday aniq choralarini taklif etyapti? Aniqliq, taklif va tadbirlardan tashqari, qanday amaliy harakatlarga o'tilmoqda?

— Yurtimizda atmosfera ifloslanishini aniqlash va uning muhofazasi bo'yicha doimiy nazorat o'rnatilgan, — deydi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi inspeksiya boshlig'i o'rinbosari Adham Qurbonov. — Xususan, Toshkent viloyati va poytaxt bo'yicha 8 ta guruh shakllantirilgan, har bir hududga 16 nafardan inspektor birlashtirilgan. Bu guruhlar 24 soat davomida tezkor tadbirlarni

amalga oshiradi. Havoning ifloslanishiga olib keladigan antropogen omillar aniqlanib, tegishli chora ko'riladi. Joriy yilda 12 ming 440 dan ziyod huquqbuzarlik holati aniqlanib, 4 milliard so'mga yaqin jarima belgilandi. Bular xazon yoqish, belgilanmagan joydan tuproq qazib olish, tom yoki ko'p qavatli uylarning tepa qismida ballonlar yoqish, qora saqich eritish holati bo'lib, atmosferaga jiddiy zarar yetkazadi. Odatda ana shunday omillar to'planib, havoning ifloslanishiga olib keladi. Salbiy holatlarning oldini olish bo'yicha tegishli qarorlar asosida zamonaviy choralar qo'llayapmiz. Xususan, atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi birinchi va ikkinchi toifali obyektlardagi ifloslantiruvchi manbalarga chang-gaz qurilmalarini o'rnatish majburiyati yuklatilgan. Issiqxonalar ham shular sirasiga kiradi. Issiqxonalar 2025-yildan ko'mir yoki boshqa yoqilg'idan faqat 99 foiz yuqori samaradorlikka ega chang-gaz uskunalarini o'rnatgan holda foydalanish talabi qo'yilgan. Issiqxonalar xatlovdan o'tkazilib, hammasiga majburiyati belgilangan xatlar yuborildi. Talabga amal qilmaganlarga nisbatan qonunchilikda belgilangan chora ko'riladi. Transport vositalaridan chiqayotgan zararli tashlamalarni kamaytirish bo'yicha ham qilinayotgan ishlardan ko'pchilikning xabari bor. Avtomobillar uchun alohida standartlar belgilangan. Nazorat tadbirlari davomida ulardagi zararli tashlamalar me'yori o'lchanib, ortiqcha holatlarda yuridik va jismoniy shaxslarga ogohlantirish beriladi, so'ng tegishli tartibda ma'muriy jarima solinadi.

Yana noyabrning avvalidagi holatga qaytishimizga to'g'ri keladi. Mutasaddilar aytayotgan choralar ko'rilayotganiga qaramay, Toshkent shahri havosining ifloslanishi o'ta yomon darajaga yetishi hech qanday bahonalarga o'rin qoldirmaydi. Bunday vaqtda "bu doimiy

yechimlarni qo'llash eng to'g'ri yechim, nazaramizda.

Qolaversa, issiqxonalar yurtimiz qishloq xo'jaligidagi katta tarmoqlardan, ozuq-ovqat xavfsizligi va aholi bandlegini ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mevasabzavotchilar milliy assotsiatsiyasi rahbari Abdurahim Abdullayevning ma'lum qilishicha, ayni paytda yurtimizda 6 ming gektardan ortiqroq issiqxonalar mavjud bo'lib, ularda 60 mingdan ziyod doimiy, 80 mingga yaqin mavsumiy ishchi mehnat qiladi. Issiqxonalar 15 turdan ko'proq mahsulot yetishtirilib, yiliga 200 million dollarlikdan ziyod mahsulot eksport qilinayapti. "2022-yilda 2047 gektarni egallagan jami issiqxonalar 487 million kub metr gaz yoqqan, bu jami mamlakat gaz xarajatining 0,8 foizini tashkil etadi", deydi Abdurahim Abdullayev.

Ana shunday muhokamalar fonida O'zbekiston Ekologik partiyasi ham Toshkent havosi bo'yicha xavotir bildirib, belgilangan tartibda deputatlik so'rovi kiritishini ma'lum qildi. Ta'kidlanishicha, havoning ifloslanishiga ko'plab sanoat korxonalarida uskunalarining ma'nan eskirgani va zamonaviy filtrlar o'rnatish ishlari yetarli darajada bajarilmayotgani sabab bo'lmoqda. Shahar havosi yomonlashuviga issiqxonalarining zarari katta ekani ham rad etilmagan. Ma'lum bo'lishicha, bugun Toshkent shahri atrofida 1314 gektar maydonda faoliyat yuritayotgan 631 ta issiqxonaning 60 foizi ko'mirdan foydalanmoqda.

holat emas", deyish bilan ish bitmaydi. Ana shu bir necha soatning ichida qanchadan qancha inson zaharli havo ta'sirida biror kasallik orttirib olishi yoki surunkali xastaligi ayv olishi hech gap emas. Shunday ekan, favqulodda holatlarda ko'riladigan tezkor choralar bor-yo'qligi bilan qiziqdik.

Mutasaddilarning aytishicha, bunday choralar belgilangan. Jumladan, Gidrometeorologiya xizmati agentligi havoda zaharli zarrachalar oshganini e'lon qilsa, sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatini birinchi bosqichda 20 foizgacha, ikkinchi bosqichda 40 foizgacha, uchinchi bosqichda 60 foizgacha pasaytirish belgilangan. Bu orqali atmosferaga chiqarilayotgan zararli tashlamalar tezkor kamaytirilishi nazarda tutilgan. Ammo harakatlar endi boshlanayapti va barcha korxonalar ogohlantirish xati yuborilayotir. Kelgusida shunday vaziyatlar yuz bersa, sanoat korxonalarini bu talabga qat'iy amal qilishi zarur. Aks holda, jarima to'laydi.

Shu yilning may oyida Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan turar joy binolaridagi atmosfera sifati bo'yicha Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tavsiyalariga mos keladigan yangi PM2.5 standarti qabul qilingan. Bu mamlakatdagi havo sifati yaxshilashga qaratilgan dastlabki maqsad va muhim qadam ekani aytiladi. Jahon bankining O'zbekiston Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi bilan birgalikda taqdim etgan hisobotida esa yurtimizda havo sifati bo'yicha takomillashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi" taqdim etilgan. Unda havo sifati standartlari va tegishli qoidalarni yangilash, havo sifati bo'yicha milliy strategiyasini ishlab chiqish hamda zarur muvofiqlashtirish mexanizmlarini yaratishga oid ustuvor harakatlar tavsiya qilingan.

"Yo'l xaritasi"ni keltirilishicha, foydalanilayotgan yoqilg'i sifati va isitish vositalarini, binolarning energiya samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish, ekologik toza isitish manbalariga o'tish orqali issiqlik tarmog'idan chiqayotgan chiqindilarni kamaytirish mumkin.



TARIXDAN

Uyg'och fikr

QUVVATLANISH HODISASI

yoxud qanday yashashimiz kerak?



Jonibek ALIJONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Erta bahorda jildirab oqib yotgan soyni, o'z-o'zicha yastanib yashnayotgan adirni ko'rganmisiz? Ijtimoiy tarmoqlar orqali dunyoning qayeridadir portlashlar bo'layotgani, yoshu qari barobar halokatga mahkum etilayotgani haqidagi lavhalarinchi? Shubhasiz, ikkala tasvirni ham ko'rgansiz. Endi mulohaza qilib ko'ring: bu ikkala holat ham biz yashayotgan bitta dunyoda sodir bo'lyapti. Qiziq-a? Ana shu qayerdadir qirg'inbarotga sabab bo'layotgan urushlar tashabbuskorlari aynan birinchi manzaradagidek tinch va sokin tabiat qo'yinida o'tirib, jarayonni boshqarib turgan bo'lsa... Yoxud

o'sha ayanchli portlashlar girdobida yashayotgan ota-onalardan biri oyoqshiragiga yerda butun o'ldim bilan xotirjam yashasam edi, deya shirin xayol surayotgan bo'lsa... Naqadar qarama-qarshi dunyo! Biroq har qancha hissiyotga berilmaylik, bunda har birimiz o'z tomonimizni aniqlab o'lmog'imiz dardkor.

Odam — murakkab yaratilgan. Inson bo'la olish qiyin. Shu bois, bobolarimiz "Inson bo'lib yasha", degan o'g'ini ko'p ta'kidlagan. Odam bir paytda ham hayoti, ham jamiyat oldida birdek mas'uliyatli. Ikkiyondan birida sustkashlik qildimi, demak, nimaningdir darz ketishi boshlanmoqda. Bugungi dunyoning ahvoriga boqib, mas'uliyatsizlik kuchayib borayotgandek, degan xulosaga borasan kishi. Buning ildizi nimaga borib taqaladi?

So'nggi vaqtlarda erkin jamiyat, erkin inson, degan tushunchalar ko'p tilga olina boshladi. Erkin inson tushunchasi ancha ijobiy bo'lsa, erkin jamiyat tushunchasi bir oz murakkab. Sababi, erkin jamiyatda darvozalar bo'lmaydi — targ'ibotlar to'siqsiz kirib kelaveradi. Bu esa erkin inson tushunchasiga putur yetkazishi mumkin. Erkin inson esa aksincha, jamiyatni sog'lomlashtiradi. Boshqalarning ham erkinligini hurmat qiladi. Oradagi farq ma'lum, lekin negadir so'nggi paytlarda erkin jamiyat tushunchasi tarafdorlari soni oshib borayotgandek.

Ishxonaga maktab yonidan o'tib boraman. Deyarli har kuni ko'rinishidan 9-10-sinf o'quvchilarining sigaret chekib turganiga

guvoh bo'laman. Bu, shubhasiz, millat taqdiriga befarq bo'lmagan har bir inson uchun yoqimsiz manzara. Shunda o'ylayman: "Ularning otanasini qanday insonlar ekan? Yoki farzandini bunday nomaqbulchilik qilib yurganini bilmasmikan?"

Bugun ish, tirikchilik tashvishi tufayli otonalarning farzandini nazorat qilishi birmuncha qiyinlashib ketdi. Bunday vaziyatdan esa "yangi tarbiyachilar" ustalik bilan foydalanishga harakat qilmoqda. Shubhasiz, sigaret chekib o'tirgan bolalar ham bu yomon odadni o'zidan o'zi o'rganmagan. Ulardan biri boshlagan va boshqalar unga ergashgan. Muammoni boshida esa o'sha "boshlagan" bolaga o'rgatgan shaxs turibdi. U buni kimdan o'rgandi? Otasidanmi? Mahalladagi yoshi kattalardanmi? Buni aniqlashning iloji deyarli yo'q. Chunki jamiyatimizda zararli targ'ibotlarga immunitet hali to'liq shakllanib ulgurmagani. Natija esa ma'lum: kelajagimiz sifatida tasavvur qilayotganimiz minglab bolalar maktabni bitirib ulgurmasdan qashandalik dardiga mubtalo bo'lib qolmoqda. Ko'cha-ko'ya yoshlar, hatto qizlar orasida psixotrop moddalar iste'mol qilish holatlari uchrayotgani achinarli.

Masalan, joriy yil iyulida tarqalgan xabarga ko'ra, Farg'onada o'quvchilarga kuchli ta'sir qiluvchi vositalar sotilgani aniqlangan. Ma'lum qilinishicha, fuqaroning arizasiga asosan Furqat tumani tegishli organ xodimlari bilan

nazoratga bo'yusinishi kerakmas, har kim o'zi istaganicha yashashi lozim", degan g'ulati qoida asosida yashaydi. Ammo bu dunyoqarashi o'zi bilan qaysidir qabih kuchlarning nazoratida ekanini bilmaydi. Sababi, mutlaq



o'tkazilgan tezkor tadbirda sotuvi cheklangan dorilarni sotgan dorixonaga egasi qo'lga olingan. Dorixonaga egasi bunday moddalarni ko'proq o'rta yoshli maktab bolalari iste'mol qilganini ko'rgani, shuning uchun shu yoshdagi bolalarga sotganini ma'lum qilgan. Mazkur ish bo'yicha olingan ashyoviy dalillar jinoyat ishlari bo'yicha Furqat tumani sudiga yuborilgan. Sud hukmiga ko'ra, dorixonaga egasiga 5 yil qamoq jazosi tayinlangan.

Mamlakatimizda bu kabi holatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar kuchaytirildi, ularga qarshi kurashilmoqda. Biroq yoshlarning bu kabi moddalarga o'rganib qolishini tasavvur qilishning o'ziyoq kishini dahshatga soladi. Bugun ayrimlarga "jamiyatda erkinlik muayyan qonun-qoidaga, nazoratga asoslangan bo'lishi kerak", desangiz, tepa sochi tikka bo'ladi. Chunki ular "erkinlik hech qanday

erkin jamiyat tushunchasi millatni, madaniyatni parchalashning samarali usuli sifatida insoniyat tarixida azaldan ko'lab kelingan.

Shu kabi insonlarga nazorat yo'qligi sababli maktabda o'qiyotgan farzandingiz psixotrop moddalar ta'siriga qaram bo'lib qolsa, qanday ahvoga tushasiz deb savol berilsa, nima deb javob berardi? Shubhasiz, bu masalani davlat nazorat qilishi kerak, biz soliq to'layapmiz-ku, desa kerak. Qaniydi, bu kabi otdan tushsa ham egardan tushmaydiganlar toifasiga allaqachon illatlar botqog'iga botib ulgurgan boshqa jamiyatlar ham soliq to'layotganini tushuntira olsang. Jamiyat shirik bo'lmas ekan, hech bir hukumat umumiy ziyonlarni to'la bartaraf etolmaydi. Sababi hukumat ham o'zida jamiyatning orzu-istaklarini namoyon etadi. Jamiyat yaxshilikni istovchi bo'lsa, hukumat buni muhayyo qiluvchi vazifani bajaradi.



Jorj Oruellning "1984" romanini ko'pchilik odamlarni samimiyati va to'g'irligi bilan g'azablantiradi; — odamlar unga hasad qiladi, ammo u buning sababini bilmay qiyinaladi; — hayotda ezilgan odamlarga qo'ldan kelganicha yaxshilik qiladi. Buni nega ilova qildim? Qani, har birimiz bu jihatlarni o'zimizning hayotimiz misolida taqqoslab ko'raylik-chi, qanchalik mos tusharkanmiz? Ming afsuski, ular barchamizda ham birdek aks etavermaydi. Zero, yaxshi inson degan tushuncha asosida ham barchamizda topilavermaydigan sabr-qanoat yotadi.

Bugun qanday yashaymiz? Sinchkovlik bilan nazar solsak, jamiyatimiz orasida "sen o'zarmi, men o'zar"lik, g'iybat hamda tabaqalanish borgan sari kuchayib ketmoqda. Buning ortidagi maqsadlar ko'lami tarayib, o'xshashlik ko'paymoqda. Masalan, yoshlar orasida "Katta bo'lsam, Marsni zabt etaman, butunlay samarador avtomobil ixtiro qilaman", deyigalardan ko'ra, "Ikki qavatli uy quraman, qimmatbaho mashina sotib olaman", deya orzu qiladiganlar ko'proq. Millatlar taqdiri farzandlarining maqsadida ko'rinadi. Bu o'rinda yosh avlodga maqsadlarni kattaroq qo'yishni o'rgatish kattalarning vazifasi ekanini unutmazlik lozim. Zero, bu ajdodlarimiz uchun asrlar davomida an'ana bo'lib kelgan.

Shu o'rinda ayrim millatdoshlarimiz ilgari surayotgan "Ajdodlarimiz tutumi bilan yashashni bas qilishimiz lozim. Bu yo'l bilan yuksak taraqqiyotga erisha olmaymiz" mazmunidagi gaplarni ham har birimiz, ayniqsa, yoshlar tafakkur elagidan o'tkazib ko'rishi zarur. Chunki bizni ajdodlarimizdan ayirmoqchi bo'lganlar, albatta, o'z g'oyasi ortidan ergashtiradi. Zero, har qanday kelajak o'tmishning izida paydo bo'ladi.

Buyuk o'tmish hech qachon buyuk kelajakni barpo etishga xalal bermaydi. Aksincha, biz kabi tarixi muhtasham, Uchinchi Renessans paydoveriga asos solish maqsadida yashayotgan millat uchun ajdodlar quvvatidan bahramand bo'lish ayni muddao. Sababi, bobolarimiz barcha muammoga ilmiy merosi orqali muqobil yechimlarni qoldirib ketgan.

— odamlar unga diqqat-e'tibor va sinchkovlik bilan razm soladi; — bolalar uni yaxshi ko'radi; — odamlarning unga o'xshagisi keladi: fikrlari, kiyinishi va xatti-harakatiga taqlid qilib, undan andaza olishga harakat qiladi; — notanishlar ham dardini aytib, ko'nglini ochadi; — biror xonaga kirishi bilan shu joyning muhiti o'zgaradi;

30 MING so'm XARAJAT, 170 MING so'm FOYDA

Tashabbus

Fransuz sayyohi turli mamlakatlarga safar uyushtirib, ko'proq madaniy meroslarni tomosha qilishga qiziqadi. Shu bilan birga, borgan joyidagi aholining urf-odatlarini o'rganish hamda u yerdan qaytishda, albatta, mahalliy hunarmandlardan biror buyum xarid qilishni yoqtiradi. Bu safar ham mehmon shaharni tomosha qilib, yaxshi taassurotga ega bo'ldi. Go'zal Shahrisabzning moziydan darak berib turgan inshootlarini hayrat bilan tomosha qildi. Betakror tabiatdan bahra oldi. Uni, ayniqsa, shu xalqning mehmondo'stligi, shirinsuxanligi hayratda qoldirdi.



Odatiga ko'ra, safarining so'nggi kunlarida esdalikka biror narsa olishga oshiqdi. Bu unchalik muammo bo'lmadi. Oqsaroy maydoni hududida usta-hunarmandlar rastalari mavjud. Mehmon do'konlarni ko'zdan kechira boshladi. Dastlab bejirim, qator qilib ildiz qo'yilgan kashalarga mahliyo bo'ldi. Kattagina matoga birgina igna

orqali turli xil gullar shakli tikib chiqilishiga qiziqib, ba'zilarini suratga oldi. Iroqi do'ppilarni boshiga kiyib, o'zini ko'zguga soldi. Ammo betakror, avval hech qayerda uchratmagan biror buyum bormikan deya kuzatishda davom etdi. Shu bois, har bir rastadagi mahsulotlarni erinmasdan tomosha qilib chiqdi.

Navbatdagi do'konga kirarkan, o'zgacha ko'rinishdagi poyabzalga ko'zi tushdi. Qo'lga olib, ipak yoki paxtadan tayyorlangan deb o'yladi. Keyin tarjimon orqali sotuvchidan so'radi. Sayyohning savollariga tabassum bilan javob berishga harakat qilgan sotuvchi qiz bu poyabzal aslida oddiy jundan tayyorlanganini tushuntirdi. Javobidan xaridor shubhalanganini anglab, ichkaridagi xonaga boshladi. Ichkarida bir guruh qiz qo'l mehnati bilan qo'y jundan turli bichimdag oyoq kiyim tayyorlardi. Ancha vaqtgacha ularning harakatini kuzatgan mehmon qiziqishni tabassumi orqali bildirib, poyabzal narxini so'radi. Jarayonni suratga olishga ruxsat so'rab, bir necha holatni tasvirlarga oldi. Bir juft oyoq kiyim bahosi 200 ming so'm ekanini eshitib, ikkita xarid qildi. Buni uyiga olib ketib, oilasidagilarga sovg'a qilishini ta'kidladi. Oddiy jundan tayyorlangan bu buyum ekologik toza, qolaversa, oyoq salomatligi uchun ancha foydali ekanini anglab, mamnun bo'ldi.

O'tmishda qadim va ko'hna Keshda necha-necha karvonlar qo'ni bo'lmagan deysiz. O'z davrida savdo-sotiq rivojlanib, hunarmandlikka ham keng yo'l ochilgan. Jumladan, zardo'zligu kulollik, chilangarlikdan tortib, naqqoshlikkacha shu zaminda gullab-yashnagan. Shuning ortidan odamlar ro'zg'or tebratib, el orasida qadr topgan. Buyuk Sohibqironning e'tibori tufayli shu davrlarda har bir sohada rivojlanish kuzatilgan. Bu an'ana bugungacha qadar davom etib kelmoqda. Hozir ham hududda qadim qadriyatlar asosida turli hunarmandlik yo'nalishi rivoj topib, mahalliy aholi bilan birga chet eldan kelgan sayyohlar uchun ham manzur bo'ladigan mahsulotlar sotilmoqda.

Bugun Amir Temur tarixi bilan qiziqqan har bir sayyoh Shahrisabz tomon oshiqadi. Qadimiy osori atiqalar, tarixiy obidalarni kuzatish bilan birga shu yerdan nimadir xarid qilishga intiladi.

Ayni paytda Oqsaroy maydoni hududida hunarmandlar uchun alohida joy ajratilgan. Bunda turli yo'nalishtagi ishlab chiqarish ustalari mahsulotini shu yerning o'zida sotish imkoniyatiga ega. Bundan tashqari, xaridorlar o'zlarini sotib olayotgan buyumlarning qanday tayyorlanishini shu joyning o'zida kuzatib borishi ham mumkin.

Ancha vaqtdan beri hunarmandlar safida faoliyat yuritayotgan Sayyora Chorivaya yaqindan boshlab yangi yo'nalishtaga qo'l urdi. Dastlab u qozog'istonlik va qirg'izistonlik tajribali mutaxassislar ko'magida kigiz tayyorlash bo'yicha malaka oshirdi. Yetarli tajriba to'plagach, Shahrisabz shahridagi ustaxonasida ish boshladi.

Aslida, kigizchilik momolarimizdan qolgan hunar, — deydi Gulbahor Chorivaya. — Ammo keyinchalik unutilib yuborilgani bois bizgacha yetib kelmagan. Hozir ham keksalarimiz yaxshi biladi. Biz faqat yerga to'shaladigan kigiz emas, balki kigizdan ayollar va erkaklar poyabzalini tayyorlayapmiz. Avvaliga bir oz ikkilandik. Bunga kimdir qiziqarmikan, deb ancha vaqt o'ylab yuridik. Nihoyat g'oyani amalga oshirdik. Eng muhimi, juda kam xarajat qilib, ko'p daromad topish mumkin. Dastlab kamroq mahsulotni taxt qilib, sotuvga chiqardik. Natija biz kutgandan ham zo'r bo'ldi. Nafaqat xorijliklar, balki mahalliy aholi ham qiziqib, olib ketdi. Narxini o'zimizcha hisob-kitob qilib, 200 ming so'mdan baholagandik. Barchaga ma'qul keldi. Hozircha to'rt qizni ish bilan ta'minladik. Ularga yetarli miqdorda maosh berapmiz. Savdomiz yomon emas. Buyurtma beruvchilar ham ancha ko'payib qoldi.

Asosan, qo'y jundan tayyorlanadigan bir juft oyoq kiyim uchun ikki yuz gramm jun hamda oddiy suv ishlatiladi. Boshqa xomashyoning keragi yo'q. Tozalangan qo'y yungining ikki yuz gramm olti ming so'm bo'ladi. Uzog'i bilan

uch soatga yaqin vaqtda tayyor holga keladi. Shundan so'ng 200 ming so'mdan sotiladi. 6 ming so'm xomashyo puli va 24 ming so'm mehnat haqi bilan birga bir juft mahsulot o'ttiz ming so'mga tayyor bo'ladi. 170 ming so'm sof foyda!



Hunarmandning aytishicha, hozir bu ishni o'rganish uchun yoshlar orasida qiziquvchilar ortib bormoqda. Shu sababli "ustoz-shogird" an'anasi asosida bir guruh yigit-qizga hunar o'rgatilmoqda. Shuningdek, boshqa tumanlarda ham ish boshlash rejalashtirilgan.

— Bilishimcha, viloyatimizda birinchilardan bo'lib aynan kigizchilik bizning shahrimizda tashkil etildi, — deydi Hunarmand uyushmasi

Shahrisabz shahri bo'limi rahbari Gulnora Chorivaya. — Tadbirkor qizimiz hozir tarmoqni kengaytirish ustida ish boshlagan. Jumladan, yaqinda Ko'kdala tumanida yangi joy ochildi.

O'rganishlarimizga ko'ra, bugun vohada junni qayta ishlovchi korxonaga deyarli yo'q. Ko'lsa ham juda kam quvvatda ishlayishi mumkin. Ko'p chorvadorlar mavsum paytida qo'ydan qirib olingan junni qayta olib borishni bilmay, shunchaki tashlab yuborib ekan. Endi bunga zarurat yo'q. Bu yo'nalishta kengaysa, butun viloyatdagi chorva xodimlari bilan hamkorlik yo'lga qo'yiladi. Natijada qirib olingan tonnalab jun xomashyosi behuda tashlab yuborilmaydi. Shu bilan birga, chorvadorlar uchun qo'shimcha daromad manbaiga yo'l ochiladi.

Ko'kdalalik chorvador Xudoyqul Diyorovning fikricha, ilgari aynan chorvaning junini qirish mavsumida ayrim tadbirkorlardan buyurtma olinib, kelishilgan muayyan pulga sotib yuborilgan. Ammo keyin bu yo'nalishtaga hech kim qiziqish bildirmay qo'yg'an. Yaqindan boshlab esa yana junga xaridor chiqaypti.

— Bu yilning o'zida chorvadan 40 kilogrammdan ortiq jun qirib olib, behuda tashlab yubordik, — deydi Xudoyqul Diyorov. — Oldinlari undan momolarimiz, ayol-qizlar kigiz, gilam to'qirdi. Keyinchalik mehnati og'irligi uchun hech kim to'qimay qo'ydi. Qaysidir hududdan bir tadbirkor sotib olib ketardi. U ham negadir kelmay qo'ydi. Yaqindan boshlab esa Shahrisabzdan bir tadbirkor kelib, jun sotib olishini aytib. Bu biz uchun yaxshi xabar edi. Hama ro'zg'orga nafi tegadi. Bundan tashqari, behuda tashlab yuborilmaydi.

Mutaxassislar fikricha, vohada aynan bu tizimda yangilikka qo'l urilgani chorva junini qayta ishlab imkonini beradi. Bundan tashqari, shuning ortidan hunarmand Gulbahor Chorivaya bir oyda o'ttiz million so'mga yaqin mablag' ishlab topayotir. Yangi ish o'rnlari ochib, ishshiz xotin-qizlari bandligini ta'minlashga hissa qo'shyapti.

Akbar RAHMONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Kambag'allikdan QUTQARADIGAN KUCH ma'naviy yuksalishdir

Yurtimizda kambag'allikni qisqartirish borasida jiddiy islohotlar davom etyapti. Mana shu jarayonda aholi faol bo'lishi, bu illatga qarshi kurashishi kerak. Negaki, mamlakat taraqqiyoti aholining mehnatsevarligi, bilimi, tafakkur olami va ma'naviy boyligiga ham bog'liq. Qaysi jamiyatda insonlar intiluvchan, bilimli bo'lsa, o'sha yerda salohiyatli kadrlar ko'p bo'ladi. Ana shu salohiyat siyosiy iroda sabab yaratilgan imkoniyat, imtiyozlardan o'z o'rnida samarali foydalanadi. Mamlakatning ikki ustuni — ma'naviyat va iqtisod birdek quvvatga ega bo'ladi. Shunday ekan, asl kambag'allik nima? Unga qarshi qanday kurashishi kerak? Shu jarayonda aholining faolligi qanchalik ahamiyatli? Ko'zlangan marrani zabt etishda yana nimalarga e'tibor berish kerak? Shu kabi savollarga javob topish, "Zarrabin" orqali mavzu mohiyatini teranroq anglash uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi mas'ul xodimi Erkin YUSUPOVni suhbatga chorladik.



— Erkin aka, yuqorida boqimandalik haqida aytgiz. Ko'rinyaptiki, boqimandalikka qarshi kurash, kambag'allikni qisqartirish borasida hali bajarilishi kerak bo'lgan vazifalar bor. Ta'kidlanganidek, yurtimizda kambag'allikni qisqartirish borasida huquqiy asos, zarur imkoniyatlar yaratib berilgan. Endi buni barcha joyda birdek ijro qilish juda muhim. So'ramoqchi bo'lganim, shu jarayonda davlat xizmatchisi qanday bo'lishi kerak?

— Davlat xizmatchisiga bu vazifalarni bajarish ham sharaf, ham ulkan mas'uliyat yuklaydi. Qolaversa, davlat xizmatchisi turfa dunyoqarashi, ma'naviy darajasi har xil bo'lgan, ayniqsa, boqimanda kayfiyatdagi insonlar bilan ishlashi oson emas. Shunday fuqarolar bor, o'zini, erini, to'rt farzandini nogiron deb hujjat qilib olgan. Hozir 3 ta uyi bor. Yana viloyat markazidan uy olib berasan deb turib olgan. O'rganishga borganida qarasangiz, hammasi sog'-salomat oila, lekin hujjatni ko'rsangiz — nogiron. Er yollanma ishchi, xotinning topgan mashg'uloti yozuv-chizuv. Faqat murojaatlar yozadi. Timimsiz nimadir so'raydi. Uning dunyoqarashi, ma'naviy olami esa...

Yana shunday oilalar bor, otaning yoshi ellikdan oshgan. Sog'lom, ammo ishlamaydi. Nuqul farzandlariga bosim o'tkazadi. Sen pul topib, menga unday-bunday qilib berishing kerak, deb. Surishtirib borsangiz, o'zi vaqtida farzandiga yetarlicha ta'lim-tarbiya bermagan. Shuning uchun ham boqimandalik jamiyatga nisbatan hurmatsizlik, dedik. Jamiyatni hurmat qilmaydigan fuqarolar bilan ishlash, albatta, oson emas.

Aytganidek, ozgina imkoniyat bo'lsa, o'zini ham, boshqalarni ham ish bilan ta'minlaydigan salohiyatga, intilishga ega yurtdoshlarimiz ko'p. Keyingi yillarda ko'ryapmiz, mahallalarda yetilish tizimi joriy etildi. Natijada masalani mahallaning o'zida hal qilishga imkon yaratildi. Endi biz, davlat xizmatchilari aholini mana shu islohotlarga ishonitirishimiz kerak. Ishonchi bo'lgan odamni yetaklab tadbirkor bo'lishga, boshqa kasb o'rganishga majbur qila olmaymiz. Bu jarayonda davlat xizmatchilariga ko'p narsa boq'liq.

Bir voqea. Tashlandiq, maishiy chiqindi to'planib qolgan 5-6 sotix joy fuqaroga mevali daraxt ekib foyda qiling deb berilgan. Haligi odam qarz-havola qilib o'sha yerni tozalab, ko'chat ekadi. Oradan 2-3 yil o'tib, bu gapani aylang rahbar vafot etdi. Yangi rahbar kelib, yeting xat-hujjati yo'q, davlatga qaytarib olamiz, deydi. Oddiy odam avvalgi rahbar lafziga ishongani, vaqtida hujjat qilmagani uning xatosi. Lekin o'sha rahbar bu xatoni to'g'rilash o'rniga yo'q joydan bir oilani kambag'allar safiga qo'shyapti. Buni ko'rgan odamlarda ishonchsizlik paydo bo'lishi mumkin. Aslida, eng katta yo'qotish ishonchdir!

Yana bir masala. OAVlardan falon joyda hokim yordamchisi, mahalladagi mas'ullar biror masala sabab ishdan olingani yo'zajolanini eshitamiz. Demak, o'sha yerda yetilish kerak masala bor. O'rni kelganda aytish kerak, kambag'allikka poraxorlik ham sabab bo'ladi. Qayerda korrupsiya ko'p bo'lsa, o'sha yerda kambag'allik parallel ravishda o'sib boradi deb o'ylayman.

Korrupsiyani to'liq yo'q qilish imkonsiz. Uni jilovlash mumkin. Qonun ustuvorligi bilan tartibga olish borasida ancha ishlar bajarildi ham. Lekin bu islohotlar, poraxorlikka qarshi

kurash hech qachon to'xtab qolmasligi kerak. Chunki ikki kishi ish yuzasidan uchrashdimi, u yerda korrupsiya bo'lishi xavfli mavjud. Ha, korrupsiyani tag-tugi bilan yo'q qilib bo'lmaydi. Hatto eng rivojlangan davlatlarda ham muayyan korrupsiya bor. Demak, raqamli hukumat tizimlarini yanada kengroq tatbiq qilishimiz zarur. Imkon qadar inson omilini yo'qotish, shu kambi'g'allikni qisqartirish uchun zarur. Shunda korrupsiyani jilovlash mumkin.

Kambag'allikni qisqartirish bilan birga korrupsiya jilovini ham tutishimiz lozim. Xabarlamani o'qiyapmiz, ayrimlar imtiyozli kreditlar o'zlashtirib yuboryapti. Bu ham korrupsiya axir. Aytmoqchiman, korrupsiyani yo'qotish va kambag'allikni qisqartirish uzviy bog'liq.

— Ishonch haqida so'ramoqchiman. Kambag'allik sabab tushkun kayfiyatdagi inson qalbidan qanday qilib ishonch uyg'otiladi? Kambag'allikni qisqartirish uchun yana qay jihatlar e'tibor berish kerak? Balki, takliflaringiz bordin?

— Juda ko'p imkoniyatlar berilmoqda, yuqorida aytganimizdek, katta mablag' yo'naltirilmoqda. Bu vazifalar to'g'ri va to'liq amalga oshirilsa, o'ylaymanki, kambag'allikni yanada qisqartirishga erishamiz.

Yana bir jihat. Qabullarda odamlarga shaxsiy telefon raqamini beraman. Bu ish faoliyatida juda asqatadi. Hududlardagi mas'ullardan ma'lumot olish bilan birga holatni oddiy odamlardan so'rayman. Shu yo'l bilan Toshkentda turib ham haqiqatga yaqin ma'lumot olamiz... Bir oilani bilaman. Erkak chet elga ishlashga ketgan, lekin oilasiga yordam bergani yo'q. Ayol kunlik yollanma ishchi bo'lib isisqixonada ishlaydi. U tushlik qilsa, 60 ming, qilmasa, 80 ming so'm pul topadi kun bo'yi. Boshqa joydan daromad yo'q. 10, 12, 14 yashar farzandlari bor. Ularni yedirish, ichirish kerak, boshqa ehtiyojlar bor. Aholi hech qanday daftarlarda turmaydi. Yoz oylarida shu oilaning bolalari qo'ng'iroq qilib: "Amaki, 10 ming qarz berib turing, tarvuz yetimiz kelgandi, imkoniyatimiz yo'q", dedi. Qarang, bu yil tarvuz arzon bo'ldi. Shu 5-10 mingga tarvuz olib yeyolmaydigan oilalar ham bor-da. Kimdir ayolidan yo eridan bevaqt ajraydi, yollanma ish bilan shug'ullanadi, voyaga yetmagan farzandlar bor. Shuqa oilada bitasi qarzi bo'lib qolsa, bo'ldi, u oila sinadi. Nima qilishni bilmaydi, dori olsinmi, yesinmi...

Shuning uchun kambag'al deb doimiy ro'yxatga olib qo'yishdan oldin o'ylashimiz kerak. Ertaga bir oila birdan kambag'al bo'lib qolishi yoki aksi bo'lishi mumkin. Demogichimanki, ijtimoiy daftarlarga kiritilayotgan oilalar uchun 3 yoki 6 oylik xavfsizlik sarmoyasini tashkil qilsak. Ya'ni deylik, oila yoz oylarida dalada ishlash yo boshqa yumush bilan kunini o'tkazaypti, ularga pulni o'sha vaqtda qo'lga bermay, sarmoya sifatida hisobraqamiga yo'naltirsak. Oilada kutilmagan noxush holat bo'lib qolsa, kasallikmi, shunday vaqtda o'sha saqlangan pul yechim bo'ladi. Shuni taklif qilgan bo'ldim.

Endi ishonch haqidagi savolingizga kelsak. Ajar biz, davlat xizmatchilari bu islohotlarni joylarda to'g'ri va to'liq ijrosini bajara olsak, davlat rahbari oldida ham, xalqimiz oldida ham ishonchni oqlaymiz.

O'rni kelganda aytay, biz, davlat xizmatchilari islohotni o'zimizdan boshlashimiz, namuna bo'lishimiz kerak. Jamiyatimiz farovonligi uchun xizmat qilishimiz shart. Shundaygina bizni kuzatib turgan jamiyatda o'zgarish bo'ladi.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Boboravshan G'oziddinov suhbatlashdi.

— Suhbatimizni kambag'allik nima, degan savolga javob izlashdan boshlasak.

— So'z avvalida "Zarrabin" orqali mana shunday dolzarb masalani ko'tarib chiqayotgani uchun "Yangi O'zbekiston" gazetasi jamoasiga tashakkur aytmoqchiman.

Savolingizga kelsak, kambag'allik keng ma'nodagi nisbiy tushuncha. Olgan nazariy, amaliy bilimlaridan, hayotda ko'rgan-kechirganlaridan kelib chiqib, kambag'allik tushunchasini hamma o'z qarashi, qarichi bilan o'laydi. Tabiiyki, turlicha talqin qiladi. Mening ham o'z qarashim bor. Kambag'allik deganda, qozon qaynashi ko'z oldimga keladi. U faqat quruq suv bilan qaynaydimi yo ichi to'la yemak bilanmi? Kambag'allik shu qozonqoz qaynashi atrofidagi tushuncha deb bilaman.

O'rni kelganda aytish kerak, jamiyatda nuqul boy va kambag'al so'zlari takrorlanaversa, odamlar, ayniqsa, yoshlar miyasiga quyilaversa, bu yaxshilikka olib kelmaydi. Buning oqibatida fikran qolqoq, ma'nau zaif, ruhan siniq jamiyat shakllanib boradi. Chunki kambag'al deb ijtimoiy kamitish insonning fikrlashi, ma'naviyati va ruhiyatiga katta ta'sir qiladi. Masalan, biror oilaga yordam berish orqali biz bilib-bilmasdan ularni ruhiy jihatdan qiynab qo'yishimiz mumkin. Deylik, maktab yoshidagi bola o'z oilasiga yordam berilganini televizor, ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlar ko'rsa, tengdoshlari unga qo'lini bigiz qilsa, (bolalarga xos holat bu) bundan ruhan ta'sirlanadi. Bola ruhiyatida o'zgarish bo'ladi. Ruhan sinib, ishonchi, kelajakka umidi so'nadi. Demogichimanki, yordam berishda shu kabi jihatlarini hisobga olish kerak. Ha, yordam ko'rsatishda ehtiyotkorona, har tomonni keng o'ylab ish ko'rish maqsadga muvofiq.

— Kambag'allikni qisqartirish uchun qaysi jihatlar e'tibor berish kerak? Bu borada xalq murojaatlari bilan ishlayotgan inson sifatidagi shaxsiy fikringizni bilmoqchi edim...

— Avvalo, kambag'allikning rasman tan olinishi katta voqea bo'ldi. Unga huquqiy baho berildi. Kambag'allikni qisqartirish borasida huquqiy asos, qonun hujjatlarini qabul qilindi. Xalq farovonligi, mamlakat taraqqiyoti uchun mazkur yo'nalishga milliardlab mablag', ko'plab imtiyozlar, imkoniyatlar berilmoqda. Xususan, Prezidentimizning "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi farmoni va uning ijrosini samarali ta'minlash maqsadida joriy yil 23-sentabrda "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi

navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

"Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi asosida ijtimoiy og'ir ahvoldagi 1000 ta mahalla tanlab olinadi. Ularning infratuzilimasini yaxshilash uchun dasturlar ishlab chiqiladi va katta mablag' ajratiladi. Bundan tashqari, oilaviy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berilmoqda. Subsiyalar ajratilishi tubdan qayta ko'rib chiqilyapti.

Davlatimiz rahbari shu yil 1-noyabr kuni Navoiy viloyatiga tashrif chog'ida: "Ma'naviy buyuk xalq — iqtisodiy buyuk bo'ladi. Ikkita tomir ustunimiz bor: iqtisod va ma'naviyat!" dedi.

Darhaqiqat, moddiy kambag'allikdan ma'naviy qashshoqlik og'irroq. Kambag'allikni qisqartirish bilan parallel ravishda insonning bilimini, ma'naviyatini oshirishimiz, dunyoqarashini o'zgartirishimiz kerak. Ichki dunyosi boy bo'lmagan odamni moddiy kambag'allikdan chiqarish juda qiyin.

Oxirgi yillarda katta sarmoyalar tikildi, qaytarib berilmas subsidiya ajratilyapti. Tikuv mashinalari, motokultivatorlar, qishloq xo'jaligi uchun zarur asbob-uskunalar bilan ta'minlanaypti. Afsuski, hamma joyda ham kutilgan natijaga erishish oson bo'lmaypti. Buning sabablaridan biri o'sha ma'naviy qashshoqlik. Hayotiy misol, bir oilaga motokultivator berilgan. Uni ishlatadi, lekin topgan pulini ichkilikka sarflaydi, uyga nafi tegmaydi. Oiladagi muhit sabab ayolida haq-huquq yo'q. Jamiyatimizda shakllangan qarash, oilani faqat er boshqarishi kerak, degan tushunchani noinsof er dastak qilib olgan. U oilasiga ko'makchi bo'lish o'rniga topganini ko'chadagi oshna-og'aynisi bilan yeb-ichishga sarflaydi. O'sha oshna-og'aynisi ham pulni oilasiga olib borsin demaydi. Ko'ryapsizmi, qanday muhit shakllangan!

Demogichimanki, oiladagi tarbiya, ijtimoiy muhit to'g'ri bo'lmasa, kutilgan natijaga erishish mushkul. Berilgan texnikani sotib, yana ber, deb chiqqan oilalar ham, o'zi umra safarlariga borib kelgan, lekin menga shunaga narsa ber, deyidiganlar ham bor. Afsuski, bundaylar bita-ikkita emas... Ularga mana bu ishni qiling desangiz, rad etadi, maktabda faroshlik qiling desa, qishda sovuq suvga qo'l ursam shamollayman, deydi. Boqimandalik kayfiyatiga tushib qolgan. Davlat bersin, deydi. Davlat kim?

Siz, men, farzandingiz hisobidan, tabiiy boyliklar, soliqlardan shakllangan budget. Moddiy yordam 37 milliondan ziyod aholining haqidin chegirib berilayotgan pul. Ayrimlar shu pulni oylik sifatida qabul qiladi. Ba'zilarning hamma narsasi bor, lekin ko'zi och, ichki dunyosi qashshoq.

Yana shunday oilalar bor, otaning yoshi ellikdan oshgan. Sog'lom, ammo ishlamaydi. Nuqul farzandlariga bosim o'tkazadi. Sen pul topib, menga unday-bunday qilib berishing kerak, deb. Surishtirib borsangiz, o'zi vaqtida farzandiga yetarlicha ta'lim-tarbiya bermagan. Shuning uchun ham boqimandalik jamiyatga nisbatan hurmatsizlik, dedik. Jamiyatni hurmat qilmaydigan fuqarolar bilan ishlash, albatta, oson emas.

Kambag'allik qayerdan keldi, qanday paydo bo'ldi? Buning turli obyektiv, subyektiv sabablari bor. Shulardan biri dangasalik. Uzoqqa bormaylik, yaqin ming yillik tariximizda ham kambag'allik, boqimandalikka qarshi kurash ijtimoiy fikr shaklida o'z ifodasini topgan. Masalan, Bahovuddin Naqshbandiy yularda kashf etilmadi. Boshqa joylarda yaratilyapti. Biz telefonidan faqat yozishma, qo'ng'iroq qilish, nimanidir ko'rish uchun foydalanamiz. Aksariyatimizda uning boshqa imkoniyatlaridan foydalanishga salohiyat yetmaydi. Bu nimaning oqibati? O'qimaslik, ilm olishga qiziqmaslikning. Keyingi yillarda kitobxonlikka katta e'tibor berilyapti. Aksariyat yoshlarimiz til o'rganib, bilim olib, o'z kuch va salohiyati evaziga xorijda tahsil olish imkonini qo'lga kiritaypti. Jamiyatni o'zgartirish uchun bu ishlarni yanada izchil davom ettirish, ta'limdagi islohotlar ijrosini to'la ta'minlashimiz zarur. Nazarimda, jamiyat bilim evaziga o'zgaradi.

Endi bugunimizga qaytsak. Ba'zilarning amali bor, ilmi yo'q, ba'zilarning ilmi bor — faqat og'izda, lekin amali yo'q. Ilmi borgan amal, amali borgan ilm berishimiz kerak. Shunda kambag'allik kamayadi. O'rni kelganda aytmoqchiman, boqimandalik — jamiyatga nisbatan hurmatsizlik.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 2574. 41157 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060. Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy. Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov Musahhih: Nasiba Abdullayeva Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy